



MEHNATNI MUHOFAZA QILISH RIVOJLANISH TARIXINI O'RGANISH.

Shamsiyev Islomjon To'raqul o'g'li

*Qarshi Davlat Texnika Universitet "Mehnatni muhofazasi va texnika xavfsizligi"
kafedrası talabasi Elektron manzil: shamsiyevislomjon725@gmail.com*

Tel:+998870100675

Annatatsiya: Mazkur maqolada mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligining rivojlanishi, tarixi, unga hissa qo'shgan olimlar va uning paydo bolishini tahlil qilamiz. Bu fan insonlar uchun qanday foydasi borligi haqida gaplashamiz. Shuningdek maqolamizda "Mehnat mehofazasi va texnika xavfsizligi" ga kerak bo'ladigan barcha narsalarni ilmiy va kasbiy konikmalar haqida fma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, rivojlanish, tarix, xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, kasbiy konikma, kasb kasalliklar, konvensiya, kasb kasalliklari.

KIRISH

Ushbu maqolada hozirgi kunda eng ommabop bolgan kasb ya'ni: "Mehnat mehofazasi va texnika xavfsizligi" haqidagi gaplashamiz. Maqolada Fanning tarixi emas balki ajdodlarimiz tarixini ham organamiz. Buning uchun biz avvalom bor o'zimizning tariximiz haqida puxta bilimlarni egallashimiz kerak. Bunda avvalom bor biz O'zbekiston tarixini keyin esa O'zbekiston Respublikasi qonunlar toplami, mehnat kodekslari va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun haqida qisqacha tanishib olishimiz kerak bo'ladi.

Asosiy qism: Ushbu maqolada "Mehnat mehofazasi va texnika xavfsizligi" faning rivojlanishini organamiz. Bu bizga nma uchun kerak? Bu fan bizga kelajakda ishchilar va ishberuvchilar o'rtasida Qonuniy munosabatlarni o'rnatadi. ning 14ta konvensiyasini ratifikatsiya qilgan.

Insoniyatning uzoq o'tmish hayotiy tajribasi har qanday faoliyat potensial xavfga ega ekanligini tasdiqlaydi. Albatta, bu tasdiq aksi ommaviy xususiyatga egadir. Vaholanki, ishlab chiqarish sharoitida xavf darajasini boshqarish hamda kamaytirish ham mumkin. Lekin qanday holatda bo'lmasin, absolyut xavfsizlikka erishib bo'lmaydi.

Xavfsizlik – ma'lum darajada xavf tug'ilishi bartaraf etilgan faoliyat holati, ya'ni faoliyatni amalga oshirishdagi asosiy maqsadlardan biridir.

Mehnatni muhofaza qilish – ishlab chiqarishdagi mehnat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan vositalar usullar majmuidir. Demak, insoniyat sivilizatsiya boshlanish davrdan boshlab mehnat xavfsizligini ta'minlash, mehnat faoliyati jarayonini va uni amalga oshirishda yuzaga keladigan xavfli omillarni o'rganishni talab etadi. Shu sababli ham inson mehnat faoliyatidagi xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot ishlari eramizdan oldingi 384–322-yillarda ijod qilgan Aristotel, 460–377-yillarda yashagan Gippokrat asarlarida ham uchraydi.



Tiklanish davrining buyuk, taniqli olimi Paratsels (1493–1541-y.) tog' ishlarini bajarishda yuzaga keladigan xavfli omillarni o'rganib chiqqan va o'z asarlarida: «Barcha moddalar zahardir va barcha moddalar dori-darmon hamdir. Faqat bir meyor ushbu moddani zaharga aylantirsa, ikkinchi meyor esa uni dori-darmonga aylantiradi», deb yozadi. Nemis olimi Agrikol (1494–1555- u.) o'zining «Tog' ishlari haqida» nomli asarida, shuningdek, italyan olimi Ramatsin (1633–1714-u.), rus olimi M. V. Lomonosov (1711–1765-u.) o'z asarlarida mehnat muhofazasi masalalariga katta e'tibor qaratgan.

XIX asrda sanoatni intensiv rivojlanishi natijasida mehnat muhofazasi muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan bir qancha olimlar yetishib chiqdi. Jumladan, V.L.Kirpichev (1845–1913 u.), A.A.Bess (1857–1930 u.), D.R.Nikolskiy (1855–1918 u.), V.A.Levitskiy (1867–1936 u.), A.A.Skochinslay (1874–1960 u.), S.I.Kaplun (1897– 1943 u.) shular jumlasidandir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mehnat xavfsizligini ta'minlash qadimgi davrdan hozirgi kungacha inson faoliyatining muhim tomonlaridan biri hisoblanib kelindi. Buyuk tabib Abu Ali ibn Sino insonda turli sabablar natijasida kelib chiqadigan kasalliklarni davolashda, buyuk olim Abu Rayhon Beruniy esa atrof-muhit omillari odamlar sog'lig'iga ta'sirini o'rganishda juda katta amaliy va nazariy ishlar qilgan. Rus olimi M.V. Lomonosov (1711-1765) tog' ishlarida mehnat xavfsizligiga asos bo'luvchi asarlarini yozgan. Lomonosov tomonidan 1742 yilda "Metallurgiya yoki kon ishlarining birlamchi asoslari" nomli asarmda konchilarga to'proqni mustahkamlash ishlari bo'yicha, narvonlarda xavfsiz xatti-harakat qilish, ish kiyimlarini to'g'ri tanlash bo'yicha ko'rsatma va qoidalarni keltiradi. Uning tomonidan yer osti shaxtalarida tabiiy ravishda havo almashtirish nazariy asoslari ishlab chiqilgan.

XIX asrda sanoat jadal rivojlanishi bilan xavfsizlik muammolari bilan shug'ullanuvchi bir qancha olimlar paydo bo'ldi. D.L. Kirpichev (1845-1913) 1882 yilda "Texnik jamiyat"ning katta yig'ilishida mashinasozlikda mehnat muhofazasi masalasiga bag'ishlangan "Mashina va uzatmalar bilan muomala qilganda ehtiyotkorlik choralari to'g'risida" degan mavzuda katta ma'ruza qilgan. Uning bu ma'ruzasida o'sha zamondagi mashinasozlikda mehnat muhofazasi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasi keltirilgan. I.M. Sechenov mehnat gigiyenasi masalalarini o'rgangan, ish vaqti davomiyligini belgilashning fiziologik kriteriyalarini ishlab chiqqan. 1901 yilda chop etilgan "Odamlarning ishchi harakatlari ocherki" nomli kitobida u birinchilardan bo'lib mehnat muhofazasi masalalarini o'rgangan. Rus olimi va muhandis N.D. Zelenskiy dunyoda birinchi bo'lib gazniqobi konstruksiyasini ishlab chiqqan.

Vatanimiz olimlaridan O.Q. Qudratov yengil sanoat sohasida, T.I. Iskanderov mehnat gigiyenasi sohasida, O.R. Yo'ldoshev va G'. Yormatov sanoat va qurilish sohasida, H.E. G'oyipov qishloq xo'jaligi sohasida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi masala va muammolarini yechishda chuqur nazariy va samarali amaliy ishlar olib borishgan.



Oliy o'quv yurtlari o'quv rejasiga 1929 yildan boshlab "Texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi" o'quv fani sifatida kiritilgan. Keyinchalik, 1966 yillardan boshlab, bu fan "Mehnat muhofazasi" deb nomlanib, boshqa fanlarning yutuq va tajribalariga suyanib, o'z nazariyasi, uslubi va tamoyillariga asoslangan mustaqil fan sifatida shakillandi.

Ushbu fanlar bir-biridan tadqiqot qilinadigan yoki o'rganiladigan obyektlarning turi, ya'ni «inson-mashina», «inson-muhit», «inson-mashina- muhit» tizimlari bilan farq qiladi. Birinchi turdagi tizimlar qonuniyatlarini muhandislik psixologiyasi, psixofiziologiya, mehnat fiziologiyasi o'rgansa, «inson-muhit» tizimi qonuniyatlarini mehnat gigiyenasi o'rganadi. «Inson-mashina-muhit» qonuniyatlari esa ergonomika fanining asosiy tatbiq etadigan obyekti hisoblanadi. Lekin, real ishlab chiqarish sharoitida yuqorida ta'kidlangan barcha turdagi bog'lanishlar (tizimlar) bir vaqtda yuzaga keladi va shu sababli inson o'z mehnat faoliyatida bir necha omillar bilan bog'lanadi va o'zaro ta'sirda bo'ladi.

"Xalqaro Mehnat Tashkiloti"ning tomonidan e'lon qilingan raqamlarga asosan, har yili ishlab chiqarishda kuzatiladigan baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari tufayli yer yuzida 2 million (bu har kuni olti mingdan ziyod odam deganidir) odam halok bo'ladi. Shu bilan birga bu ko'rsatkichning o'sish sur'ati yildan yilga 10% ga oshib bormoqda. Bundan tashqari, 270 mln kishi ishlab chiqarishdagi jabrlanuvchilarga aylanishadi. MDH davlatlarida ish vaqtida 600 mingdan ziyod baxtsiz hodisalar qayd etiladi. XMT tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, butun dunyo yalpi ichki mahsulotining 4% nomaqbul mehnat sharoitlari va ishdagi baxtsiz hodisalar tufayli yo'qotiladi.

Har qanday jamiyat uchun inson butun faoliyati davomida, qanaqa faoliyat bilan shug'ullanishidan qat'i nazar, qadr-qimmatga ega bo'lishi lozim. Chunki, mamlakatlar o'z fuqarolarining sog'lig'iga va hayotiga nisbatan bo'lgan e'tibor har qanday jamiyat taraqqiyot darajasining asosiy o'lchov mezonlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgan dastlabki yillardan boshlab davlat bosh islohotchi tamoyili asosida mamlakatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalishlarini belgilab oldi va bu yo'ldan og'ishmay bormoqda. Inson hayoti va sog'lig'ining ustuvorligi ta'minlash davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan bir bo'lib, insoniyat jamiyatni taraqqiy ettirish hamda ishlab chiqarishni boshqarishda asosiy kuch ekanligini hisobga olib, uning xavfsizligi va sog'lig'ini saqlash ijtimoiy taraqqiyot yo'lidagi muhim omil hisoblanadi.

"Birlashgan Millatlar Tashkiloti" (BMT) „Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi“ni 1948 yil 10 dekabrda qabul qildi. Shu deklaratsiyaning 9- moddasida, "Har bir inson yashash huquqiga ega...", 23- moddasida esa "Har bir inson mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli va qulay sharoitlar... huquqiga ega" deb yozilgan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 37 moddasida „Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash... huquqiga egadir“ deb yozilgani, aynan yuqorida zikr etilgan Deklaratsiyaga mos



kelishining isbotidir. Demak, O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning mehnatini muhofazalash va faoliyat xavfsizligini ta'minlash halqaro meyorlar asosida tashkil etilib, umumdavlat miqyosidagi masala darajasiga ko'tarilgan.

Har yilning 28 aprelida butun dunyo miqyosida halqaro mehnatni muhofaza qilish kuni keng nishonlanadi. Albatta, bu kunni nishonlashda "Xalqaro Mehnat Tashkiloti" (XMT) xizmatlari katta. XMTning tashabbusi bilan, "Mening hayotim", "Mening ishim", "Mening xavfsiz mehnatim" shiori ostida tadbirlar tashkil etilmoqda.

Bugungi kunda mehnat muhofazasi tushunchasi halqaro miqyosda o'ta dolzarb va jiddiy tus olayotgan muammolardan biri sanaladi. Mehnat muhofazasi yuzasidan olib borilayotgan halqaro meyorlar sirasiga quyidagi talablar kiradi:

- ishchi-xodimlarning sog'lig'i va hayotini himoya qilish;
- davlat miqyosida mehnat muhofazasini ta'minlovchi meyorlarni qabul qilish va halqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish;
- mehnat muhofazasi bo'yicha davlat boshqaruvi;
- mehnat muhofazasi talablarining bajarilishi yuzasidan davlat nazoratini olib borish;
- mehnat muhofazasi talablari ijrosi yuzasidan keng jamoatchilik nazoratini olib borish;
- mehnat muhofazasi, atrof muhitning sofliğini asrab avaylash, boshqa ijtimoiy va iqtisodiy faoliyat turlarini muhofaza qilishni muvofiqlashtirib borish;
- mehnat muhofazasi bo'yicha loyihalarni davlat tomonidan moliyalashtirilishi;
- mehnat muhofazasi bo'yicha malakali mutaxassislarni yetkazib berish masalasi;
- mehnat muhofazasi bo'yicha yagona axborot tizimini yaratish kabi masalalar va ularning ijrosi borasida halqaro meyorlarni belgilab berilgan.

XMTning 52 konvensiyasida qabul qilingan meyorlarga asosan, "Xalqaro Mehnat Byurosi" (XMB) tomonidan "Mehnatni muhofazalash va xavfsizligini ta'minlash" yo'riqnomasi ishlab chiqilgan. Unda xavfni to'g'ri baholash va identifikatsiyalash usullari, xavflarni boshqarish tizimi to'g'risida aniq ko'rsatmalar belgilangan. Mazkur qonuniy hujjatda aytib o'tilgan tavsiyalar mehnat sharoitida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfni to'g'ri baholash, milliy va hududiy miqyosda ularni boshqarish, xavfli omillarni o'z vaqtida bartaraf etish, xavfsiz mehnat sharoitlari tizimini ishlab chiqish orqali ularni kamaytirish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va texnik sohalarida rivojlanishga olib keladi. Bugungi kunda mamlakatimiz huquqiy meyorlariga mos keladigan halqaro meyoriy xujjatlarni hayotga tatbiq etish nuqti nazardan Oliy majlisimiz qonunchilik palatasi tamonidan qator halqaro meyorlar ratifikatsiya qilingan.

Mamlakatimizning o'z ichki mehnat qonunchiligi ham XMTning meyorlarga muvofiq muntazam ravishda takomillashtirilib borilmoqda. Buni Prezidentimiz raxbarligida davlatimiz va hukumatimiz tomonidan mehnatni muhofaza qilishning meyoriy-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, hozirgi zamon talablariga javob beradigan darajada ishlab chiqish va amalga tatbiq etish borasidagi ishlar jadallik bilan



olib borilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, davlatimiz tomonidan 2016 yilda "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni yangi tahririyati, 2023 yilda esa yangi „Mehnat kodeksi“ning kuchga kiritilishi jamiyat hayotida va mehnatni muhofaza qilish sohasida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasiining 2008 yil 10 sentabrda "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi, 2009 yil 16 aprelda esa "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. 2010 yil 20 iyulda esa Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish to'g'risida"gi №153 qaror qabul qilindi. Buning natijasida mehnat muhofazasi sohasida meyoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va ishlab chiqish hamda amalga tatbiq qilish yanada jadallashdi.

Yuqorida keltirilgan mehnat muhofazasi bo'yicha qabul qilingan huquqiy-meyoriy hujjatlar, standartlar, nizomlar, qoidalar, yo'riqnomalar barchasi korxonalarda xodimlar hayoti, sog'lig'i va ish qobiliyatini muhofazalash, turli baxtsiz hodisalar, jarohatlanishlar va kasb kasalliklarining oldini olish, qulay va bexatar mehnat sharoitlarini yaratish, xavfsiz mashina va mexanizmlar, qurilmalar, uskunalarni loyihalash, ishlab chiqarish va tatbiq qilishga xizmat qiladi.

Shu sababli, ishlab chiqarish sharoitidagi umumlashgan xavfli va zararli omillar inson sog'ligi va mehnat qobiliyatiga birgalikdagi ta'sirini alohida mustaqil fan – «Mehnatni muhofaza qilish» fani o'rganadi.

Xulosa va takliflar: Mening fikrimcha bu fanning rivojlanishi juda katta ahamiyat kasb etgan. Chunki, ishchilarning sog'lig'i, tinchligi va xavfsizligi ish beruvchi uchun muhim o'rin tutadi. Xulosa qilib aytadigan bolsak -insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat -salomatligi va ish qobiliyatining saqlanishiga qaratilgan chora tadbirlar xar bir korxonada 1oyda kamida bir marta shunaqa tushuntirish va har xil turdagi video roliklar qoyib borilsa mening fikrimcha ishchilarning salomatligini ishda sergak ishlashiga, eng asosiysi baxtsiz xodisalarni oldini olishga erashamiz deb oylayman. Va bundan tashqari har kuni bizni sohamizda ishlovchi shaxs ishchilarga mativatsiya va mukofot pullari bersa ishchilarni ishga bo'lgan mehri hamda sadoqatini ko'rish mumkin.

Shu maqsadda har bir mehnat muhofazasida ishlovchi odam faqatgina ishchilarga faqatgina yoriqnomalardan tashqari o'zini haq huquqlarini ham o'rgatishi lozim deb oylayman. Masalan, O'zbekiston Respublikasida xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarida ishlash yuzasidan fuqarolarning huquqlari Konstitutsiyada (O'zbRes Konstitutsiyasi 42-modda) bilan himoyalab qoyilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan
- 2.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, «O'zbekiston», 1992-y.



3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. Toshkent, 1996-y.

4. <https://share.google/images/BACfe3prwVnlhJ2Sp>

5. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni .//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami -T: "Adolat" 2016

6. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni.//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami-T.: "Adolat"2006

7.O'zbekiston Respublikasi "Mehnat kodeksi" .//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami -T.: "Adolat" 2005

8.GOST12.0.004-90-"MXST". Mehnat xavfsizligiga o'qitishni tashkil etish .Umumiy qoidalar.